



“GULISTON” ASARINING BIR QO‘LYOZMA NUSXASI XUSUSIDA

Muallif: Nodirova Shaxnoza Nazar qizi¹

Affiliyatsiya: Termiz davlat universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20226186>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ogahiy tomonidan tarjima qilingan "Guliston" asarining 2019-yilda topilgan va hozirgi kunda Xorazm Ma'mun akademiyasi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi asosida matniy tahlil amalga oshiriladi. Qo'lyozmaning paleografik xususiyatlari, imlo va grafika jihatlari, fonetik hamda morfologik shakllari o'rganiladi. Matnni tabdil qilish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni hal etish prinsiplari yoritiladi. Tadqiq natijasida qo'lyozmaning matniy ahamiyati aniqlanadi.

Kalit so'zlar: matnshunoslik, qo'lyozma, tabdil, Ogahiy, Guliston, matniy tahlil, paleografik xususiyatlari.

Sharq mumtoz adabiy merosining yirik namoyandalaridan biri asl ismi Mushrifiddin ibn Muslihiddin ibn Abdulloh bo'lgan Sa'diy Sheroziy Eronning Sheroz shahrida tavallud topganligi uchun taxallusi "Sheroziy"dir. Uning "Guliston" asari turk va boshqa xalqlar adabiy muhitida alohida e'tibor qozongan. "Guliston"ning turkiy tildagi ilk tarjimasini Sayfi Saroyi (hijriy 793, milodiy 1391-1392), undan so'ng Muhammadrizo Erniyozbek og'li Ogahiy (hijriy 1279, milodiy 1862-1863) va uchinchisini Mulla Murodxo'ja (hijriy 1327, milodiy 1909) amalga oshirganlar. Ushbu maqolada Muhammad Rizo Erniyozbek og'li Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini va hozirgi kunda Xorazm Ma'mun Akademiyasida saqlanayotgan nusxasi asosidagi tadqiqotni ko'rib chiqamiz. Bu tarjimalar o'zbek adabiy tili va adabiyotining tarixiy taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. Ogahiy tarjimasining bizgacha yetib kelgan qo'lyozma nusxalari shubhasiz, matniy tadqiqni talab etadi. Xususan, alohida bir qo'lyozma asosida olib boriladigan tahlil matnning shakllanish jarayonini, imlo xususiyatlarini va tarjimon uslubini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy XIX asrda Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini bir necha sabablarga ko'ra tarjima qilgan. Ma'lumki, ushbu asar o'sha davr maktab-madrasalarida fan sifatida o'qitilgan. Shu jumladan, bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, undagi axloqiy-didaktik va hikmatli hikoyatlarni turkiyzabon xalqlarga ham yetkazib berish, o'sha davr sharq adabiyotida mashhur ijodkorlarning taniqli asarlarini tarjima qilish va uni ommalashtirish odat tusiga kirgan hamda Ogahiy ham bu an'anani davom ettirgan. Bir so'z bilan aytganda, Ogahiy "Guliston" ni tarjima qilish asnosida xalqni ma'rifatli qilish, ularning axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini boyitish va o'zbek tilining keng imkoniyatlarini ijodkor-o'quvchilarga ko'rsatib berishni maqsad qilgan. "Guliston" ning tarjima qo'lyozmasini o'qiganimizda unda hoshiyada judayam ko'p o'zgartirish kiritilganligini, ko'pchilik



soʻzlar oʻchirilib satr ustida qaytadan toʻgʻirlanganligini, sahifalarda (ayrim sahifalarda berilmagan) poygirni va ayrim soʻzlar tashqi taʼsir sababli boʻyalganini koʻrishimiz mumkin hamda qoʻlyozma oxirida toʻliq kolofon mavjud emas, ammo kitobning yozib tugatilgan sanasi aniq koʻrsatilgan.

Bundan koʻrinib turibdiki, biz soʻz yuritayotgan qoʻlyozma asar Ogahiy hayotligi davrida yozilgan. Maʼlumot oʻrnida aytish mumkin, Ogahiy 1809-1874 yillarda yashab ijod qilgan. Shuningdek, barcha qoʻlyozmalarni oʻqishda har bir detallar yaʼni nuqtalar, harflar va hoshiyada keltirilgan soʻzlar, kolofon, poygir ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot uchun asos qilib olingan qoʻlyozma asosan pand-nasihahat ruhida yozilgan boʻlib, arab alifbosiga asoslangan eski turkiy tili va yozuvida bitilgan hamda unda eski oʻzbek adabiy tili va yozuviga xos grafika hamda imlo xususiyatlari kuzatiladi. Qoʻlyozma nasx va taʼliq unsurlari qorishgan nastaʼliq xatida yozilgan boʻlib, kitobni sahifalash oʻngdan chapga tomon amalga oshirilgan yaʼni oʻsha davr anʼanasiga amal qilingan, ayrim oʻrinlarda kotib tomonidan tuzatishlar kiritilgan. Kitob varaqlari sariq tusli Samarqand qogʻozidan tashkil topgan, har bir sahifa 15 qatordan iborat boʻlib, qora va qizil siyoh bilan yozilgan, 400 sahifaning hech biri (muqovadan tashqari) maxsus bezaklar bilan bezatilmagan. Asosan, "hikoyat", "bayt", "qit'a", "masnaviy", "nazm", "xotima" kabi soʻzlar hamda bob nomlari va bir hadis [1:12] qizil siyoh bilan yozilgan. Matn anʼanaviy "basmala" bilan boshlangan va xotima bilan yakunlangan. Satr usti va satr osti izohlar uchraydi. Shuningdek, ushbu qoʻlyozmada unlilar toʻliq ifodalanmagan, tinish belgilari va sahifalar soni umuman qoʻyilmagan, bu esa oʻqishda maʼlum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, bir xil soʻz turli joylarda turlicha yozilgan yaʼni "bir" soʻzi bir oʻrinda بىر boʻlsa, yana boshqa oʻrinda بىر tarzda, "kishi" soʻzi ham كىشى va كىشى tarzda hamda "ojiz" soʻzi ham aslidek yozilmagan. Bundan tashqari arabiy va forsiy soʻzlarning yozilishida beqarorlik kuzatiladi yaʼni كولىخ "kulux" soʻzi aslida كولىخ yozilishi kerak [3:32]. Shuningdek, ayrim undoshlar almashuvi, t ning d ga, k ning g ga va a ning o ga oʻzgarishi va soʻzlardagi qoʻsh undoshlarning biri butunlay tushib qolish holatlari uchraydi. Bu holatlar matnni tabdil qilishda kontekstual va tarixiy-lisoniy yondashuvni talab qiladi. Matnda eski oʻzbek tiliga xos fonetik shakllar saqlangan boʻlib, "erdi", "turur", "borur", "etti", "bergil" kabi feʼl shakllari hamda "-kim" (eshitdimkim, aytgilkim, dedikim kabi), "va" bogʻlovchilari faol qoʻllaniladi. Mazkur tarjimada Xorazm shevasining oʻziga xos shakli ham koʻzga tashlanadi. Masalan, "hamul", "xusudlar" (hasadgoʻylar), "qovdi" (quvdi), "yovuq" (yaqin) kabi soʻzlar shular jumlasidandir. Gaplar qurilishida feʼl zamonlari, nisbat shakllari, koʻplik qoʻshimchalari barqaror qoʻllangan boʻlib, tarjimonning til meʼyoriga sodiqligini koʻrsatadi. Qoʻlyozma matnida turkiy, arabiy va forsiy qatlam uygʻunlashgan. Diniy va tasavvufiy terminlar asosan arabiy shaklda berilgan. Axloqiy-falsafiy tushunchalar esa koʻpincha forsiy birliklar orqali ifodalangan. Ogahiy tarjimasini original matnga sodiq qolgan holda baʼzi joylarda turkiylar uchun tushunarsiz boʻlgan soʻzlarga izohlar berib oʻtgan. Bu esa tarjimonning matnni oʻquvchiga yaqinlashtirishga intilganini koʻrsatadi. Shu oʻrinda, taʼkidlash joizki, qoʻlyozmada ayrim soʻz tushib qolgan yoki ortiqcha takrorlangan oʻrinlar uchraydi. Bu esa matnning biroz tushunarsiz boʻlishiga olib keladi. Ammo satr ustida koʻpgina tuzatishlar kiritilgan, bu esa kotibning matnni tekshirish jarayonida faol qatnashganini bildiradi. Bunday oʻrinlarni aniqlash va toʻgʻri tiklash tekstologik mezonlar asosida amalga oshiriladi. Mazkur qoʻlyozma matnini tabdil qilishda, matnga sodiqlik, tarixiylikni saqlash, punktuatsiyalarni mazmun asosida qoʻyib

chiqish, tushunilishi qiyin so'zlarga izoh berish prinsiplariga amal qilingan. Bu yondashuv matnning tarixiy qatlamini saqlagan holda uni ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi. Bundan tashqari, turli adiblar tomonidan turli davrlarda amalga oshirilgan tarjima nusxalardagi farq she'riy yo'l bilan yozilgan qismida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Ogahiy tarjimasidagi bir qit'a shunday:

Eshitgilki, Yazdontalab bandalar,
Yuzin qilmadilar aduvg'a tarash.
Qachon yetgusidir sanga bu maqom?
Ki, san do'stlar birla qilg'ung urush [2:400].
Xuddi shu qit'a Mulla Murodxo'ja tarjimasida esa bunday:
Eshitdimki, Haq yo'lining erlari,
Aduvlar dilini-da qilmadi tang.
Qachon sanga bo'lg'ay muyassar bu kor,
Ki, do'stung bori birla g'avg'ovu jang [3:89].

Bundan ko'rishimiz mumkinki, so'z sinonimlarini qo'llagan holda mazmun aynan saqlangan, ammo Ogahiy tarjimalarida Xorazm shevasi ham muhim rol o'ynagan.

Ogahiy tarjimasining bir qo'lyozma nusxasi asosida olib borilgan matniy tadqiq matnning grafika, imlo, fonetik va morfologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiq Ogahiy merosini chuqurroq o'rganish hamda o'zbek mumtoz tarjima maktabi tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саъдий Шерозий. Гулистон. Тарж. Фафур Фулом, Ш.Шомухаммедов назм ва Рустам Комилов наср. Мухаррир Васфий. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёти нашриёти, 1968. – 184 б.
2. محمد رضا آگاهی. گلستان. قوليزما. خپوه. ۱۲۷۹.
3. Гулистон: бадиий-маърифий / Нашрга тайёрловчи, масъул мухаррир ва тақдим сўзи муаллифи: Сайфиддин Сайфуллоҳ. – Тошкент: "Book Media Shop" МЧЖ қошидаги "Munir" нашриёти, 2023. – 320 б.
4. سعدى شیرازى. گلستان. - تهران: انتشارات مرکز علم نشر، ۲۰۰۵.
5. Муҳаммад Ризо Огаҳий таржималари: «Гулистон» (ўзбек тилига таржима). – Тошкент: Фан, 1960.
6. А. Қаюмов. Огаҳий ҳаёти ва ижоди. – Тошкент: Фан, 1972..
7. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. O'zbek adabiyoti tarixi (ko'p jildlik). – Toshkent, 2000.
8. Naim Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.